



## **ANALYSIS OF THE CURRENT BORDER PROBLEM BETWEEN AFGHANISTAN AND PAKISTAN**

**Sardar Rakhimov**

*student*

*Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** The Big Game, Durand Line, Pashtunistan, Baluchistan, Taliban Movement, Afghan Pandora's Box, Afghan Dualism, FATA, SCAP, NWFP, Solomon Road, UN Security Council.

**Received:** 11.05.23

**Accepted:** 13.05.23

**Published:** 15.05.23

**Abstract:** This article deals with the border issue between Afghanistan and Pakistan, including the "Durand Line" and its impact on security on the border between the two sides. Also, solutions about the political and international legal basis of solving the "Durand Line" problem using the researches of scientists of the field are put forward.

## **HOZIRGI DAVRDA AFG'ONISTON VA POKISTON O'RTASIDAGI CHEGARA MUAMMOSI TAHLILI**

**Sardor Rahimov**

*talaba*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

### **MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** "Katta o'yin", "Dyurand chizig'i", Pashtuniston, Balujiston, "Tolibon" harakati, "Afg'on Pandora qutisi", "Afg'on dualizmi", FATA, SCAP, NWFP, "Solomoncha yo'l", BMT Xavfsizlik Kengashi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegara muammosi, jumladan "Dyurand chizig'i" va uning ikki tomon chegarasidagi xavfsizlikka ta'siri xususida so'z boradi. Shuningdek, unda soha olimlarining tadqiqotlaridan foydalangan holda "Dyurand chizig'i" muammosini hal etishining siyosiy va xalqaro huquqiy asoslari haqida yechimlar ilgari surilgan.

**АНАЛИЗ АКТУАЛЬНОЙ ПОГРАНИЧНОЙ ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУ  
АФГАНИСТАНОМ И ПАКИСТАНОМ**

**Сардар Рахимов**

студент

Ташкентский государственный университет востоковедения  
Ташкент, Узбекистан

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Большая игра, линия Дюранда, Паштунистан, Белуджистан, движение «Талибан», афганский ящик Пандоры, афганский дуализм, ФУТП, СКАП, СЗПП, Соломон Роуд, Совет Безопасности ООН.

**Аннотация:** В этой статье рассматривается проблема границы между Афганистаном и Пакистаном, в том числе «линия Дюранда» и ее влияние на безопасность на границе между двумя сторонами. Также выдвигаются решения о политической и международно-правовой основе решения проблемы «линии Дюранда» с использованием исследований ученых отрасли.

**KIRISH**

Afg'oniston va Pokiston chegarasi dunyodagi eng xavfli va hali-hanuz hal etilmagan jumboqlardan biri hisoblanadi. Mazkur chegara ma'lum ma'noda Afg'oniston davlatining yirik kuch markazlari o'rtasidagi "Katta o'yin" chorrahasiga aylanishiga va uzoq yillik urushlar girdobiga tushib qolishiga sababchi bo'ldi. "Katta o'yin"dan meros bo'lib qolgan shunday muammolardan biri Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi hal etilmagan chegara mojarosidir.

Afg'oniston bilan eng katta hududiy chegaraga ega bo'lgan davlat aynan Pokiston hisoblanadi. Taqqoslash uchun Afg'onistonning Pokiston bilan chegarasi Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston va Xitoy bilan bo'lgan umumiyligi chegarasidan ham kattadir. Darhaqiqat, chegara omili har ikki tomon uchun ham hayotiy ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, Afg'onistonga qo'shni davlatlar o'rtasida aynan Pokiston bilan bo'lgan chegara muammosi haligacha bartaraf etilmay, o'sha hududlarda beqarorlik davom etishiga olib kelmoqda. Bu esa Afg'onistonda bir qator muammolarni kengayib, hattoki chuqur ildiz otishiga olib kelgan asosiy sabablar sirasiga kiradi.

Pokiston davlati vujudga kelmagan paytlarda Afg'oniston chegarasi Britaniya Hindistoni bilan kelishilgan bitimlar orqali nazorat etilgan. O'sha vaqtda bu hududlarda turli xil etnik guruhlar o'rtasida ixtiloflar va alohida ajralib chiqishga urinishlar tez-tez sodir bo'lib turgan. Jumladan, pashtunlarning Pashtuniston, balujlarning Balujiston va boshqa turli qabilalararo ittifoq tuzishga bo'lgan da'volari oxir-oqibatda Britaniya imperiyasini ham bu hududdagi chegara muammolarini hal etishiga undadi. Pokiston davlati tashkil topgach esa muammo yanada jiddiy tus oldi.

## ASOSIY QISM

Afg'onistondagi siyosiy vaziyat va afg'on muammosi bo'yicha yirik mahalliy afg'onshunoslardan biri siyosiy fanlar doktori, professor Abdusamatad Haydarov hisoblanadi. A.Haydarov "*Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatida Markaziy Osiyo*" nomli dissertatsiyasida XX asr oxirlaridagi Afg'onistondagi beqaror vaziyat, afg'on omilining Eron-Pokiston munosabatlari hamda Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlar jarayoniga ta'sirini batafsил tahlil etgan. Muallif mazkur dissertatsiyada "80-yillarning oxiridan boshlab Pokiston maxsus xizmatlari orqali AQSh tomonidan moliyalashtirilgan, Pokiston madrasasini tamomlagan hamda afg'on bitiruvchilari hisoblangan "Tolibon" harakati 1994-yil bahorida Afg'onistonning janubiy viloyatlarida shakllangan"[1], deb yozadi.


Afg'oniston va Pokiston munosabatlarini tadqiq etgan olimlardan siyosiy fanlar nomzodi, dotsent Shoislom Akmalovning ilmiy tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. "*Afg'oniston chorrahada: muammolar va istiqbollar*" nomli kitobining "Pokistonning Afg'onistonga oid siyosati" qismida quyidagicha yozadi: "Pashtunlarning ayirmachilik harakatining asosiy sababi 1893-yilda Afg'oniston qiroli Abdurahmon va Hindiston mustamlakachi ma'muriyati kotibi Mortimer Dyurand o'rtasida tuzilgan 2640 km uzunlikdagi "Dyurand chizig'i" masalasidir. Ushbu chegara muammosi 1949-yildan boshlab Afg'oniston-Pokiston o'rtasidagi hududiy muammoga aylandi. Alohida ta'kidlash joizki, "Dyurand chizig'i"ni Afg'onistonda na qirol, na Xalq Demokratik Partiyasi (XDP), na Tolibon va Hamid Karzay davridagi birorta hukumat tan olmadi."[2]

Siyosiy fanlar bo'yicha PhD, dotsent Suhrob Bo'ronovning "*Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosati*" nomli monografiyasida muallif "Dyurand chizig'i"ni afg'on muammosini hal etishning asosiy kaliti deb baholaydi hamda bu chiziqni "Afg'on Pandora qutisi" degan yangi atama bilan izohlaydi[3]. Ayniqsa, S.Bo'ronov Afg'onistonga oid siyosiy tadqiqotlarda yangi "Afg'on dualizmi" nazariyasini ishlab chiqib, uni ikki guruhga ajratadi: "Afg'on milliy dualizmi" va "Afg'on mintaqaviy dualizmi". "Afg'on mintaqaviy dualizmi" nazariyasida Afg'onistonni jo'g'rofiy jihatdan Markaziy Osiyo yoki Janubiy Osiyoning bir qismi ekanligi bilan bog'liq dualistik bahs-munozaralarni o'rtaga tashlaydi va ularning har birini asoslab beradi. Olimning xulosasiga ko'ra, Afg'oniston Markaziy yoki Janubiy Osiyoning bir qismi emas, balki ikki mintaqani o'zaro bog'lab turuvchi "ko'pri" sifatida baholanishi lozim. Shuningdek, S.Bo'ronov o'z ilmiy izlanishlarida "Dyurand chizig'i" bo'yicha ikki davlatning pozitasiyasini o'zaro tahlil etgan holda muammoni bartaraf etilishi Afg'onistondagi mustahkam tinchlikka zamin yaratadi, deb xulosa qiladi.

### “Dyurand chizig‘i” xaritasi



### Pashtuniston xaritasi



Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi asosiy chegara muammosi "Dyurand chizig'i"dir. Bu chegara 1893-yil 12-noyabrda Afg'oniston amiri Abdurahmon va Britaniya Hindistoni tashqi ishlar bo'yicha kotibi Mortimer Dyurand tomonidan imzolangan shartnoma asosida yaratilgan[3], shu bois "Dyurand chizig'i" deb nomlanadi. Mustamlaka siyosatining namoyishi hisoblangan

ushbu hujjat avvalgi (Peshovar, 1855; Gandamak, 1879) shartnomalarning mantiqiy davomi bo‘lib, Afg‘oniston davlatidan tortib olingan sharqiy pashtun yerlarini Britaniya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olinishini hamda “Dyurand chizig‘i”ni Afg‘oniston va Britaniya Hindistonining davlat chegarasi sifatida “tan olinishi”ni ta’minladi. Tazyiq ostida imzolangan ushbu bitim pashtunlarni de-yure ikkiga bo‘lib qo‘ydi. Eng asosiysi “Afg‘onlar Vatani” deb hisoblangan yerlar afg‘on davlati tarkibiga kirmay qoldi[4].

Bu chiziq shimolda Pomir tog‘laridan janubda Arab dengizigacha cho‘zilgan va pashtun qabila hududlarini kesib, janubda Balujiston mintaqasi orqali o‘tadi. Bu esa pashtunlarni, shuningdek, chegaraning har ikki tomonida yashovchi balujlar va boshqa etnik guruhlarni siyosiy jihatdan ajratadi. U Afg‘onistonning shimoli-sharqiy va janubiy viloyatlaridan Shimoliy va G‘arbiy Pokistonning Xayber-Paxtunxva, FATA (Federal ma’muriy qabilalar hududi), Balujiston va Gilgit-Baltiston (Jammu va Kashmirning bir qismi)ni ajratib turadi[5]. “Dyurand chizig‘i” maqomi bo‘yicha Pokistonning rasmiy pozitsiyasiga ko‘ra, “Dyurand chizig‘i” Afg‘oniston va Pokiston suveren hududlarni ajratib turadigan xalqaro chegaradir. Bu pozitsiya Pokiston Konstitutsiyasida ifodalangan[6].

Boston universiteti professori Husayn Haqqoni maqolasida qayd etilishicha, “Afg‘oniston va Pokiston davlatlari chegaradagi keskinlikni bartaraf etishi va “Katta o‘yin”dan qolgan fitna va zo‘ravonlik o‘rniga ochiq, diplomatik munosabatlar o‘rnatishi kerak. AQSh vositachiligidagi Pokiston va Afg‘oniston o‘rtasida “Dyurand chizig‘i” bo‘yicha yashirin kelishmovchilikni tugatish bo‘yicha kelishuv va Pokistonning Afg‘oniston ichki ishlariga aralashuvini to‘xtatish bo‘yicha xalqaro kafolatlar ikki musulmon davlati o‘rtasidagi mustahkam tinchlik va do‘stlik uchun asos bo‘lishi mumkin”[7].

So‘nggi paytlarda Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi “Dyurand chizig‘i” bo‘ylab bir necha hodisalar sodir bo‘ldi va bu ikki tomon rasmiylari muammoni hal qilish zaruratini keltirib chiqardi. Afg‘oniston Tashqi ishlar vazirligi matbuot kotibi Abdul Qahhor Balxiy o‘zining Twitter sahifasida “Muammolarni tushunish, muzokaralar va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillari asosida hal qilishga ishongan Afg‘oniston Islom Amirligi diplomatik yo‘llar orqali bu masalani hal qiladi”, deb qo‘shimcha qildi[8], ammo bu borada hech bir amaliy natijaga erishilmadi. Aksincha, chegara hududlarda turli qurolli nizolar davom etib kelmoqda.

Mahalliy afg‘onshunos S.Bo‘ronov o‘z maqolasida “Dyurand chizig‘i” muammosi va uni hal etish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surgan: “Shak-shubhasiz, “Dyurand chizig‘i” afg‘on muammosining ildizi va uni hal etishning kalitidir. “Dyurand chizig‘i” mustamlakachi rejim va “Katta o‘yin”ning salbiy natijasidir. Bu tarixiy xato va Afg‘oniston va Pokiston chegarasidagi hozirgi mojarolarga bevosita mas’ul bo‘lgan eng qudratli davlatlarning o‘zaro kelishuvi va hamkorligi asosida hal qilinishi kerak. Bu muammoni “Solomoncha yo‘l” bilan hal qilish vaqtida

keldi va kelajakda bu mintaqaning barcha davlatlariga foyda keltiradi. Agar BMT tomonidan “SCAP” ishchi guruhi (Xavfsizlik Kengashi+Afg‘oniston va Pokiston) tashkil etilsa, afg‘on muammosining muqobil yechimi sifatida samaraliroq bo‘lar edi. Bu tashabbusning mazmun-mohiyati shundan iboratki, BMT Xavfsizlik Kengashining besh doimiy a’zosi, shuningdek, Afg‘oniston va Pokiston hukumatlari chegara masalalarini siyosiy muzokaralar yo‘li bilan hal qilishlari kerak. Bizning fikrimizcha, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “SCAP” ishchi guruhi quyidagilarga e’tibor qaratishi kerak: “Dyurand chizig‘i”ni xalqaro huquq asosida hal qilish; FATA va NWFPning huquqiy maqomini aniqlash; Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi chegara masalalari bo‘yicha rezolyutsiyasi qabul qilindi”[9].

Shuningdek, mutaxassislarning tahliliga ko‘ra, xalqaro hamjamiyat hozirgi Pokiston-Afg‘oniston chegarasini qayta ko‘rib chiqish va yarashuv jarayonlarini osonlashtirish lozim, aks holda mintaqqa xavfli chaqnash nuqtasiga aylanib ketish xavfiga duch keladi. Afg‘oniston-Pokiston chegarasi duch kelayotgan son-sanoqsiz jiddiy muammolar Islomobod va Kobul uchun o‘tmishdagi keskin mojarolarning garovi bo‘lib qolmasdan, o‘zaro munosabatlarni tiklash va bu muammolarni birgalikda hal qilish vaqtি kelgani uchun tashvishli chaqiriq sifatida ko‘rinadi. “Dyurand chizig‘i” kabi bahsli chegaralar uchun yechim qarama-qarshilik siyosatini davom ettirishda emas, balki hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi strategiyalarda yotadi. Ikki davlat mintaqaning tinch va farovon kelajagini ta’minlash bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqishlari, chegarada harakat qilayotgan zo‘ravon nodavlat va davlat subyektlariga qarshi kurashishda hamkorlik qilishlari va keng qamrovli kelishuvga erishish uchun mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishni maqsad qilishlari kerak[5].

O‘z navbatida, ikki davlat chegara muammosini xalqaro huquqiy yo‘llar bilan hal etish ham dolzarb o‘rin egallaydi. Xususan, Xelsinki kelishuvlari Janubiy Osiyodagi muammoli Pashtuniston va Kashmir muammolarini hal qilishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Mintaqani o‘rganuvchi olimlarning aksariyati Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi “Dyurand chizig‘i”da xalqaro qonuniylikni ta’minlash ushbu chegara mojarosini hal qilishning yagona ehtimoliy yechimi, deb hisoblashadi. Xelsinki xalqaro konferensiyasi Pokiston va Afg‘oniston rahbarlariga ikki tomonlama chegaraviy muzokaralarni boshlash uchun “turtki” berishi va bu jarayonlarda Xalqaro Gaaga sud tomonlarga yakuniy yechimga erishish uchun ko‘maklashishi mumkin[10].

## XULOSA

Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasida chegara muammosi, jumladan, “Dyurand chizig‘i” haligacha hal etilmagan dunyodagi eng murakkab hududiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Natijada davlatlararo chegaraning qariyb bir asrdan ortiq vaqt davomida hal etilmasligi bu hududlarda ekstremistik va terroristik guruhlarning paydo bo‘lishiga, giyohvand moddalar

savdosining aylanishiga, qochoqlar oqimining vujudga kelishiga, etnik va qabilalararo ixtiloflarning hamda chegaraning har ikki tomonida yashovchi qabilalalarning ayirmachilik harakatlari tez-tez sodir bo‘lishiga olib keldi. Qolaversa, ikki davlat o‘rtasidagi chegara muammolari nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro xavfsizlikka ham tahdid solishini ham inobatga olib aytish mumkinki, afg‘on va pokistonlik doiralar ushbu muammoni o‘zaro kelishuv va siyosiy muzokaralar yo‘li bilan hal etishi maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Хайдаров А.А. (1996) Центральная Азия во внешней политике Исламской Республики Иран. Дисс. док. полит. наук. –Т.: – С.285.
2. Акмалов Ш. (2014) Афганистан на перепутье: проблемы и перспективы. Lambert Academic Publishing.
3. Бўронов С.М. (2021) Афғонистонда тинчлик ва барқарорликни ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати. Монография. – Т.: “EFFECT-D”. – 30 б.
4. Бобокулов И.И. (2021). Афғонистон лугат-маълумотнома. Тошкент: «COMPLEX PRINT» нашриёти. 93-94 б.
5. The Durand Line - A razor’s edge between Afghanistan & Pakistan. European foundation for South Asian studies. Retreived from <https://www.efsas.org/publications/study-papers/the-durand-line-a-razors-edge-between-afghanistan-and-pakistan/>
6. PAKISTAN CONSTITUTION. art. 1, § 2, cl. c. Retrieved from [https://na.gov.pk/uploads/documents/1333523681\\_951.pdf](https://na.gov.pk/uploads/documents/1333523681_951.pdf)
7. Haqqani H. (March 15, 2006) The Wind Blows Another Way at The Durand Line. Carnegie Endowment for International Peace. Retrieved from <https://carnegieendowment.org/2006/03/15/wind-blows-another-way-at-durand-line-pub-18267>
8. Recently a few of incidents have taken place along Durand line between Afghanistan and Pakistan that have given rise to the need for authorities of the two sides to address the problem. The official website of Islamic Emirate of Afghanistan Ministry of Foreign Affairs. Retrieved from <https://mfa.gov.af/en/recently-a-few-of-incidents-have-taken-place-along-durand-line-between-afghanistan-and-pakistan-that-have-given-rise-to-the-need-for-authorities-of-the-two-sides-to-address-the-problem/>
9. Buranov S. The Durand line – Key of the Afghan problem. International Journal of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 02, February 2020. Retrieved from <http://www.ijstr.org/final-print/feb2020/The-Durand-line-Key-of-the-Afghan-problem.pdf>
10. Tomsen P. (2002) Post-Taliban Afghanistan and Regional Co-Operation in Central Asia. Retrieved from <http://sam.gov.tr/pdf/perceptions/Volume-VII/march-may-2002/Peter-Tomsen.pdf>